Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	



Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni.....	1334
Ismailov Xusanboy Muhammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiyo yo'nalishlari va tahlili.....	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni	1375
Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati .	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherkchilik loyihibalarida islomiy	
moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash.....	1411
Maxkamboyev Komil Abdulxakovich	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi	
samaradorligini oshirish masalalar	1416
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
Raximov Furqat Jalolovich	
Xorijiy investitsiyalarni jaib qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari	1431
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari	1437
Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
Mirzayev Bobur Soyibjonovich	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish	1448
Davletov Ikram Raximberganovich	
Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире	1452
Нуриллаев Рахмат Ярашевич	
Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klasterlash imkoniyatlaridan foydalanish	1458
Mavlanov G'olib	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish sharoitida	
"yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari	1464
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich, Umarov Oqil Omiljonovich	
Mетод проектов как одно из условия успешного формирования антикоррупционной	
компетенции студентов высшей школы	1470
Мохоров Дмитрий Анатольевич	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari va institutlari	1476
Askarov Zoxidjon Sadikjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash yo'llari	1481
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	



Marketing Mix, Retail Trade, Material Environment in Marketing.....	1485
Egamberdiyev Muzaffar	
Davlat tomonidan aholi bandligini tartibga solish ilmiy konsepsialarining evolyutsiyasi	1489
Ismoilov Azizbek	
Significance of Investment Activity in Tourism and its Development.....	1493
Utkirjan Akhmedov	
Корпоративные структуры и их влияние на развитие учета и отчетности	1498
Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи	
Происхождение и роль социального сельского хозяйства в современной экономике	1506
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
Анализ конкурентной среды: примеры, методы и этапы	1512
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili	1518
Djalilov Dostonbek Abduaazizovich	
Исследование методов бетонной смеси.....	1524
Шарипова Мадина Конгратбаевна	
Oilaviy biznesni boshqaruva tuzilmasi	1532
Tosho'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Strategies for Advancing Green Construction:	
The Influence of Business Investment in Research and Development	1537
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova	
Kichik tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritishning asosiy shart va tamoyillari	1545
Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li	
Оптимизация корпоративного управления через сбалансированное финансовое стратегирование.....	1549
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
Milliy iqtisodiyotning o'sishida agroklasterlarni shakllantirish va samaradorligini oshirish hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish.....	1553
Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich	
Improving the Efficiency of the Organization Through the use of Innovative Models of Personnel Management.....	1559
Bahodurova Sulhiya Azizhojaevna, Akhmedov Usmonjon Khaidarjonovich, Li Marina Rudolfovna, Romashkin Roman Anatolyevich	
Факторы влияющие на экономический рост в развитии экономики Нового Узбекистана	1569
Мамедов Хусан, Хамраев Олимжон Яхибоевич	
Sug'urta bozori bo'yicha risklarni baholash va obyektni sug'urtaga qabul qilishda anderrayting xizmatining tutgan o'rni.....	1576
Sayfulllo Mirzoyev	
Klaster korxonalar faoliyatini takomillashtirishda soliq yukini yengillashtirilishi.....	1581
Jabbarov Mashrab Ismoil o'g'li	
Xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllarining asosiy belgi va xususiyatlari	1586
Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini baholash	1589
Vahobov Davron Abdujalolovich	
Globalashuv jarayonlarini chuqurlashuvi davrida xalqaro turizmni rivojlanishi.....	1597
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
Bandlikni taminlashda bo'sh ish o'rinalarini yaratish.....	1602
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich	
Theoretical foundations of authenticity in leadership	1605
Esanova Shohida Utkirovna	
Masofaviy ta'limdi tashkil etishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	1611
Normurodov Akmal Muhiddin o'g'li	
O'zbekiston turizmining barqaror rivojlanishida shoping turizmining ahamiyati	1616
Fayyoza Xalimova Nafasovana	
Mintaqada turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari.....	1619
Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li	
Iqtisodiy-matematik usullar asosida sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish yo'llari	1625
Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li	
Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1630
Raxmonov Lochin To'xtamishovich	



MINTAQADA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqada iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasining roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mintaqada turizm sohasining hozirgi holati tahlil qilinib, uni istiqbolda rivojlantirish bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa, hudud, kompleks, turizm, sayyoh, omil, turistik infratuzilma, ekoturizm, rekreatsion turizm, agroturizm.

Abstract: In this article the role of tourism sector on development of the economy of the region is shown. And also, the current condition of tourism sector of the region is analysed, conclusions, suggestions and recommendations are given for further development of this sector.

Key words: region, territory, complex, tourism, tourist, factor, tourist infrastructure, ecotourism, recreational tourism, agrotourism.

Аннотация: В статье показаны роль сферы туризм в экономическом развитии региона. А также, анализировано нынешнее состояние сферы туризм в регионе, даны выводы, предложения и рекомендации по дальнейшему развитию этой сферы.

Ключевые слова: регион, территория, комплекс, туризм, турист, фактор, туристская инфраструктура, экотуризм, рекреационный туризм, агротуризм.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharoitida mintaqalarni kompleks rivojlantirish alohida o'r'in tutadi. Xususan, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining "mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisiga" dagi ma'ruzasida hududlarni kompleks va intensiv ravishda rivojlantirish borasida qabul qilingan yangi maqsadli dasturlarni amalga oshirish bo'yicha muhim vazifa va choralarni belgilab berdilar^[1].

Bu chora-tadbirlar Prezidentimizning hududlarda bo'lgan safarlarida yanada ustuvor ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, Prezidentimiz o'zining 2017-yil 27-yanvardagi Xorazm viloyatiga tashrifi mobaynida "Xorazm viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilashga doir qo'shimcha chora tadbirlar dasturi" ishlab chiqilganini va 2017-yil 17-yanvardagi maxsus qaror bilan tasdiqlanganligini aytib o'tdilar^[11].

Mintaqalarni kompleks rivojlantirishga mintaqada xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish lozim. Aynan, O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalari (Samarqand, Buxoro, Xorazm)ga xos bo'lgan xususiyatlardan biri – turizm sohasidir.

Xususan, Prezidentimiz viloyatning turizm sohasi mutaxassislari bilan uchrashuvida kelgusida mamlakatimizni barqaror rivojlantirishda turizm sohasini muhim o'r'in egallashini, ushbu tarmoqni taraqqiy topishiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilayotganini alohida ta'kidladilar.

Shu bilan birgalikda, Prezidentimiz o'z nutqida, sayyohlik mamlakatimiz valyuta tushumlarini ko'paytirishning muhim manbai bo'lishi bilan birga eng asosiysi yuzlab ish o'rinlarini ochish imkonini berishini aytib o'tdilar^[11].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik iqtisodchi olim M.A.Vinokurov turizmga “Turizm – bu hordiq chiqarish, davolanish, sport bilan shug’ullanish, ziyorat qilish, biznes qilish maqsadida inson tomonidan bo’sh vaqtida amalga oshiriladigan sayohatdir”, deb ta’rif bergan [8].

O’zbekistonlik iqtisodchi olim I.S.To’xliyevning ta’rifiga ko’ra, turizm – bu turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar turidir [4].

Fikrimizcha, turizm – bu dam olishni tashkillashtirishning murakkab va ommaviy hodisasi va shakli, tashqi dunyoni bilish uchun imkon, xizmatlar va biznes sohasida mintaqalararo va xalqaro hamkorlik maydoni, mintaqva va davlat siyosatining bir qismi hisoblanadi.

Avvalo, turizmni rivojlantirish o’ziga xos tabiatiga ko’ra bir qator resurslarga, shu jumladan, geografik omil va mintaqqa xususiyatlari bog’liqdir. Shuning uchun ham yuqori turizm salohiyatiga ega bo’lgan O’zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz, buni amalga oshirishga mintaqaviy jihatdan yondashish lozim. Chunki, mintaqalarda turizmni rivojlantirish butun bir mamlakat turizm sohasining rivojlanishiga hissa qo’shadi.

Mintaqaviy turizmga Rossiyalik iqtisodchi Ye.A.Zaliznyak “Mintaqaviy turizm – bu ma’lum bir hududdagi turistik ehtiyojlarning qondirilishi va uning rivojlanishi uchun zarur bo’lgan bir-biri bilan o’zaro bog’liq bo’lgan funksiyalarni bajarish uchun tashkil qilingan murakkab tizimdir”, deb ta’rif bergan [7].

Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda turizm bozori muhim o’rin tutadi. Rossiyalik iqtisodchi I.T.Balabanovning fikricha, “Turizm bozori – turistik mahsulot iste’molchilari va sotuvchilari o’ttasidagi iqtisodiy munosabatlar yig’indisidan iborat” [5].

Mintaqaviy turizm bozorining asosiy obyektlaridan biri – turistik xizmatlar bo’lib, Rossiyalik iqtisodchilar I.V.Zorin va V.A.Kvartalnovlar turistik xizmatlarga quyidagicha ta’rif beradilar: Turistik xizmatlar – bu turistik ehtiyojlarni qondiruvchi asosiy, qo’shimcha va kompleks xizmatlar majmuidir. Ular asosiy xizmatlarga sayyohlikni tashkil qilish va o’tkazish uchun zarur xizmatlar, qo’shimcha xizmatlarga sayohat o’z ichiga olmagan va ehtiyoj bo’lgan holda dam olish joyida taqdim qilinadigan xizmatlar, kompleks xizmatlarga chiptada kafolatlangan turistik xizmatlar majmuini kiritganlar [6].

Xorijiy sayyohlarga ko’rsatiladigan har qanday turistik xizmatlar eksport qilish bilan barobar bo’lib, bu chetdan keladigan valyuta tushumlarini ko’payishiga zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhash, sintez, SWOT-tahlil, induksiya, deduksiya va suhabat usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: 2015-2016-yillarda viloyatda jami qabul qilingan sayyohlar (ming kishi)

№	Jami qabul qilingan sayyohlar, shu jumladan:	2015-yil	2016-yil	
				1
2	3	4	5	
1	O’zbekiston Respublikasi fuqarolari	22,767	29,201	28
2	Xorijiy fuqarolar	34,822	40,014	15
3	MDH mamlakatlari fuqarorlari	5,767	6,600	14
Jami		63,356	75,815	20

Mintaqada turizm sohasini rivojlantirishga bir necha omillar ta’sir qilib, ularning asosiyлари quyidagilar hisoblanadi:




2-jadval: Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning asosiy shartlari

Асосий блоклар	Тузилмавий элементлар
1	2
Turistik resurs omillar	<ul style="list-style-type: none"> - tabiiy-geografik resurslar; - tarixiy-madaniy resurslar; - zamonaviy turistik resurslar. Bular mintaqaviy turizmning rivojlanish asoslarini tashkil etadi.
Ijtimoiy-iqtisodiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> - turistik ehtiyojlarning bajarilishi; - mahalliy ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik; - turizmnинг rivojlangan turlari haqida ma'lumotlarning mavjudligi.
Tashkiliy-boshqaruv omillar	<ul style="list-style-type: none"> - mintaqada turistik faoliyatning tashkil etilishi va uning moliyalashtirilishi; - turistik infratuzilmalarni rivojlantirish; - mintaqaning transport imkoniyatlari; - turizmni rivojlantirishni mintaqaviy rejalashtirish va boshqarish; - mintaqadagi turistlarning xavfsizligini ta'minlash.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Turistik ehtiyojlarning bajarilishiga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, viloyatda xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 2015-yilda 8757,2 mln. so'm va 2016-yilda 11389,9 mln so'mdan ortiqni tashkil qilib, 2016-yilda 2015-yilga nisbatan 30 foizga oshgan.

Bundan tashqari, xorijiy sayyohlarga ko'rsatilgan eksport xizmati hajmi 2015-yilda 1,9 mln.dollarni va 2016-yilda 2,3 mln AQSH dollarini tashkil qilib, 20 foizdan oshgan [10].

Turistik ehtiyojlarni bajarilishi uchun xizmat qiladigan sayyohlik tashkilotlari soni 2012- yildagi 36 tadan 2016-yilda 72 taga, shundan, mehmonxonalar soni 23 tadan 52 taga (Urganch shahrida 12 ta, Xiva tumanida 34 ta, Hazorasp tumanida 4 ta va Gurlan tumanida 2 ta), turoperator va turagentlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni 7 tadan 20 taga yetdi (Urganch shahrida 9ta, Xiva tumanida 8ta, Urganch tumanida 1 ta, Xazorasp tumanida 1 ta va Bog'ot tumanida 1 ta) (2-rasm).



2-rasm: 2012-2016-yillarda Xorazm viloyati turizm sohasida faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar sonining o'sish dinamikasi [10]

Shu bilan birgalikda, viloyatda turizm sohasida mahalliy ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik darajasi ham yil sayin o'sib bormoqda. Jumladan, 2008-yildan UrDU "Turizm va iqtisodiyot fakulteti" tarkibida "Turizm" kafedrasiga asos solinib, bakalavr mutaxassislar tayyorlana boshlandi va 2013-yildan ushbu kafedrada "Turizm (faoliyat turlari)" mutaxassisligi bo'yicha magistratura ta'limi tashkil etildi. "Turizm" yo'nalishi bo'yicha 2016-yilgacha 238 nafar bakalavrlar va 8 nafar magistrantlar tayyorlandi. Shuningdek, viloyatda turizm mutaxassisligiga ixtisoslashgan 3 ta kasb-hunar kollejlari mavjud bo'lib, ularidan yiliga 390 nafarga yaqin mutaxassislar yetishib chiqmoqda.



Turizm bo'yicha oliy va o'rtalik maxsus ta'limgan bitiruvchilaridan har yili 90-95 foizi turizm bo'yicha ishga joylashib, soha rivojiga o'z hissalarini qo'shmaqdalar [9]. Turizm bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash sohani mahalliy ishchi kuchi bilan ta'minlashga zamin yaratadi.

Mintaqada turizm sohasini rivojlantirishda turizmning rivojlangan turlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish va ularni amaliyatga tatbiq etish muhimdir. Xorazm viloyatida keyingi yillarda zamonaviy turizm turlaridan ekoturizm, rekreatsion turizm va agroturizm rivojlanma boshladi. Qolaversa, ushbu zamonaviy turdag'i turistik xizmatlarni rivojlantirish uchun viloyatda barcha imkoniyatlar mavjud (5-jadval).

Shuningdek, turizm sohasi bo'yichi iqtisodchi olim, i.f.n., dots. U.R.Matyakubov bilan o'tkazilgan suhbatda mintaqasi iqtisodiyotini rivojlantirishda, xususan, qishloq joylarida aholi daromadini oshirish va mahalliy aholini ish bilan ta'minlashda bugungi kunda turizmning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan agroturizm xizmatlarini tashkil qilinishi lozimligi va viloyatda ushbu turizm turini samarali rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud ekanligi alohida qayd qilib o'tildi. Jumladan, bugungi kunda Xorazm viloyatining Urganch, Yangibozor va Xiva tumanlarida mahalliy va xorijiy turistlarga sifatlari va namunalari xizmat ko'rsatuvchi bir qancha agroturizm obyektlari barpo etilgan.

Tashkiliy-boshqaruv omillari. Mintaqada turistik faoliyatning tashkil etilishi va uni moliyalashtirilishi omilini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Xususan, bu borada Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyoji va talablariga javob beradigan turizm industriyasi obyektlarini – mehmonxonalarini va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiyoq ovqatlanish obyektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo'nalishlari bo'yicha yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo'l bo'yili infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarni keng jaib etish orqali moliyalashtirish kabi yo'nalishlar belgilab berilgan [2].

Viloyatda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida ham keyingi yillarda bir qator ijobjiy va istiqbolli ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 2015-yilda turistlarga yangi sayyohlik yo'nalishlari taqdim qilish borasida Xiva tumanida "Bog'i shamol", "Xiva qorako'l" fermerlik xo'jaligida, "Eshon Ravot" ko'lida, Bog'ot tumanida "Qalajiq qal'a", Urganch tumanidagi "Ulli hovli" obyektlarida yangi sayyohlik infratuzilmalari tashkil etildi.

Shu bilan bir qatorda, Urganch halqaro aeroporti binosini zamonaviy halqaro standart talablari hamda zarur infratuzilmalarni e'tiborga olgan holda qayta ta'mirlash va moddiy-tehnika bazasini mustahkamlash ishlari yuksak darajada bajarildi. Yangicha kutib olish va kuzatish terminallari jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy qulayliklarga ega bo'ldi. Bu yerda keng va yorug' zallarga eng so'nggi rusumdag'i jihozlar o'rnatildi. Ona va bola xonasi, tibbiyot punkti, "Duty free" do'kon va qahvaxona shular jumlasidandir. Bundan tashqari, binoda 200 nafar yo'lovchi sig'imiga ega tranzit hamda "VIP", "CIP" zallari, sayyohlar uchun maxsus, qulay xizmat turi – axborot ofisi tashkil etildi.

Urganch shahridagi Shovot kanali bo'yida zarur infratuzilmaga ega kemalar to'xtashi uchun maxsus joylar barpo etildi va yangi kemalar sotib olinib ishga tushirildi. Xususan, "Shovot" kanali bo'yida dam olish maskanlari barpo qilindi.

"Tarixiy madaniy meros obyektlarni ta'mirlash va holatini yaxshilash"ga doir 15,2 mln. AQSH dollariga teng (5,6 mlrd. so'm) 39 ta madaniy meros obyektlarini ta'mirlash ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib dastur doirasida davlat budjeti mablag'lari hisobidan jami 19 ta obidada 6,8 mlrd. so'mlik ta'mirlash va tiklash ishlarni amalga oshirildi.

Sayyohlar uchun qo'shimcha obyektlar infratuzilmasini yaxshilash yo'nalishi bo'yicha Dastur doirasida viloyatda 17,25 km uzunlikdagi optik-tolali kabel o'tkazilib, 2304 ta internet portlari (216 tasi "Ichhan Qal'a" majmuasida) o'rnatildi.

Aeroport, temir yo'l vokzali hamda "Ichhan Qal'a" majmuasi hududida sayyohlik obyektlari va mehmonxonalarda Wi-fi internet zonalari tashkil qilindi.

"Ichhan Qal'a" majmuasi hududi, Urganch shahridagi mehmonxonalarga 16 ta terminal va 3 ta bankomatlar o'rnatilib, 5 ta valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyati yo'lga qo'yildi [10].

Shuningdek, viloyat turistik infratuzilmalarni rivojlantirishda ayrim hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar ham mavjud.

Xususan, mintaqasi iqtisodiyoti bo'yicha iqtisodchi olim, i.f.n., dots. I.S.Abdullayev bilan bo'lgan suhbatda xalqaro turizm bozorida raqobatning rivojlanib borayotganligi, viloyat turizm kompleksida esa rivojlangan mam-lakatlardagi kabi raqobatbardosh bo'lgan "besh yulduzli" mehmonxona hamda turistlarga yengil avtomobilarni ijaraqa beruvchi korxonalarining yo'qligi soha rivojiga to'sqinlik qilayotganligi aniqlandi.

Turizm bo'yicha iqtisodchi olim, i.f.n., dots. F.O.Abdullayev esa, viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlar asosan keksalarni tashkil qilayotganligi va bunga sabab viloyatda yoshlarni jaib qiladigan infratuzilmalarning yetishmasligi sabab bo'layotganligini ta'kidlab o'tdi.



Mintaqaning transport imkoniyatlariiga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda Urganch xalqaro aeropordida Parij, Milan (mavsumda) va Rossianing Moskva, Sankt-Peterburg va Volgograd shaharlariga to'g'ridan to'g'ri avaireyslar qatnovi amalga oshirilmoqda [10]. Bundan tashqari, Prezidentimiz Xorazm viloyatiga tashrifi mobaynida yaqin yillar ichida "Toshkent-Urganch-Xiva" yo'nalishida "Afrosiyob" tez yurar poyezdi qatnovi yo'lga qo'yilishini aytib o'tdilar. Viloyatning bunday transport salohiyatiga ega ekanligi turizm sohasini rivojiga hissa qo'shadi [11].

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishni mintaqaviy rejalashtirish va boshqarish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiliy qiyofasini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni so'zimizning isbotidir [2].

Shuningdek, "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi [10]. Bularning hammasi sohani rejalashtirish va boshqarish asoslarini belgilaydi.

Turizmni rivojlantirishda mintaqadagi turistlarning xavfsizligini ta'minlash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ularning sayohat xavfsizligi ta'minlanmasa, sayyoh tashrif buyurishdan voz kechadi. Bu borada "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Prezident farmonida turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda, turizm obyektlariga tashriffarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan [2].

Yuqorida tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish istiqbolilarini belgilash maqsadida SWOT tahlili amalga oshirildi (5-jadval).

5-jadval: Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning SWOT tahlili

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
1	2
Yil sayin xorijiy va mahalliy sayyoohlар tashrifining oshishi	Xitoy, koreys, yapon, hind tilida so'zlashish
Turizmni rivojlantirish bo'yicha Prezident Farmonining qabul qilinganligi	Ekoturizm va rekreatsion turizm infratuzilmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi
Imkoniyatlari	Xavf-xatar yoki tahdidlari
Agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi	Turizm sohasiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning juda sustligi sabab, turizmni moliyalashtirish
Transport infratuzilmasining yanada rivojlanishining kutilishi. Jumladan, "Toshkent-Urganch-Xiva" tez yurar poyezдинing qatnovi amalga oshirilishining kutilishi	Xalqaro turizm bozorida raqobatning kuchayishi natijasida xorijiy sayyoohlarning viloyatimizga tashrifi kamayishi mumkinligi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Viloyatning turizm salohiyati yaqin besh yil ichida sezilarli darajada rivojlangan. Bunga eng asosiy sabab, Prezidentimiz boshchiligidagi hukumat a'zolari, Turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi, viloyat hokimiyati, olimlar, soha mutaxassislari va tadbirkorlarning turizm sohasini rivojlantirishga qo'shayotgan hissalarini natijasidir.

Soha rivojiga to'sqinlik qilayotgan bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib, bu kamchiliklarni quyidagi takliflar orqali bartaraf etish tavsiya qilinadi:

- viloyatga tashrif buyurayotgan sayyoohlarning ko'pchilik qismi asosan faqat bir xil davlatlar (Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya va Yaponiya)dan kelishmoqda. Viloyat turizm sohasini rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz, viloyatning turizm salohiyatini katta demografik tuzilishga ega bo'lgan Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda yanada keng tarzda targ'ibot-tashviqot qilib, ushbu mamlakatlardan keladigan sayyoohlarni sonini ko'paytirish kerak;
- viloyatga Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreya mamlakatlardan tashrif buyurayotgan turistlarga mazkur davlatlar tilida so'zlasha oladigan gidlar yetishmayapti. Shuning uchun, xitoy, yapon, hind, koreys tilida so'zlasha oladigan gidlarni tayyorlash lozim;



- viloyatda turistik resurslar va hududlar mavjudligiga qaramasdan, ulardagi infratuzilmalar haligacha rivojlanmagan. Misol uchun, Amudaryo bo'yida ekoturizm hamda rekreatsion turizmni rivojlantirish resurslari borligi aniqlangan, lekin hanuzgacha kerakli infratuzilmalar (mehmonxona, kurort va hokazo) barpo qilinmagan. Mazkur muammoga jiddiy yondashgan holda tezkorlik bilan uni hal qilish uchun yechim topish kerak;
- viloyatga xos bo'lgan xususiyatlardan biri qishloq xo'jaligi sohasi bo'lib, mazkur yo'nalishda agroturizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun ham istiqbolda agroturizmni rivojlantirish, buning uchun esa xorij tajribalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir;
- viloyatga tashrif buyurayotgan sayyoohlар, asosan keksalarni tashkil qilmoqda. Bunga sabab, viloyatda yoshlarbop infratuzilmalarning yetishmasligidir. Shuning uchun, viloyatda yoshlarni jalb qiluvchi turistik infratuzilmalarni (jumladan, xostel1) yaratish lozim;
- viloyatning turizm kompleksida besh yulduzli mehmonxonanining yo'qligi yuqori daromadli turistlarning vohamizga tashrif buyurishdan bosh tortishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun, xorijiy investorlarni jalb qilgan holda viloyatda besh yulduzli mehmonxonalarni barpo etish kerak;
- viloyatga tashrif buyurayotgan sayyoohlarga qulaylik yaratish maqsadida rivojlangan mamlakatlardagi kabi yengil avtomobilarni ijara beruvchi korxonalarni tashkil qilish lozim. Bu esa, viloyatning turizm jozi-badorligini oshirish bilan birgalikda turistik xizmatlarning ko'payishiga qulay zamin yaratadi;
- viloyatning turizm salohiyati faqatgina BTT (Butunjahon Turizm Tashkiloti) internet saytida (www.unwto.org) reklama qilinmasdan, boshqa eng ko'p kiriladigan internet saytlarda ham reklama qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shuningdek, mintaqada turizm sohasining rivojlanish shartlarini modellashtirish (4-jadval) va modeldagи barcha omillarni kompleks tarzda rivojlantirish istiqbolda turizm sohasini rivojlanishi uchun ta'sir qiladigan murakkab dastur, metod va yo'nalishlarni ifodalovchi samarali mintaqa siyosatini shakllantirishga ko'mak beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining "Mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisiga ma'rurasasi // Xalq so'zi, 2017-yil 16-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda qabul qilingan PF-4861-sон Farmoni.
3. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2014.
4. To'xliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. –Toshkent, "Iqtisodiyot-moliya" nashriyoti. 2010. – 254 bet.
5. Rustamovich, Dehkonus Burhan. Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan // European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23): 19-23.
6. Dehqonov Burxon Rustamovich. Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2023-yil, oktyabr. № 10-sон ISSN: 2992-8982
5. Балабанов И.Т.Балабанов А.И.Экономика туризма: Учеб. пос–М.:Финансы и статистика, 2003. - 176 с.
6. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 368 с.
7. Зализняк Е.А., Региональный туризм: Основные признаки и условия развития, Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 3, Экон. Экол. – 2011. –№ 2 (19).
8. Винокуров М.А., Что такое туризм?/научная статья- www.dissercat.com
9. Xorazm viloyat Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
10. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma'lumotlari.
11. www.xorazm.uz sayti.
12. www.wikipedia.org sayti.

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

